

KICHIK LIRIK JANRLARDAGI ASARLARDA XABAR VA XABARCHI MAVZUSI

Mardanov Raxim Gaybulla ugli

Jizzax politexnika institut. O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

Gmail: rahimmardanov42@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15023102>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hazrat Navoiyning kichik lirik janrlardagi asarlari, xususan, ruboiylarida xabar va xabarchi mavzusiga ham murojaat qilingan. Alisher Navoiyning "Badoye' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya" va "Xazoyin ul-maoniy" to'plamiga kirgan devonlarida uchraydigan kichik janrdagi asarlarida xabar va xabarchi mavzusi bo'yicha olib borgan izlanishlar natijasi shuni ko'rsatdiki, faqat ruboiy janridagina uchraydi.

Kalit so'zlar: Xabar, xabarchi, qosid, ruboiy, janrlar, tashbeh, mubolag'a, devon, makatub, kichik janarlar.

ТЕМА СООБЩЕНИЯ И СООБЩИКА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ МАЛЫХ ЛИРИЧЕСКИХ ЖАНРОВ

Марданов Рахим Гайбулла угли

Преподаватель кафедры узбекского языка и литературы Джизакского политехнического института

Gmail: rahimmardanov42@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматриваются темы вести и вестника в произведениях малых лирических жанров, адресах и рубаи Хазрата Навои. Результаты исследований, проведенных по теме вести и вестника в произведениях малых жанров, представленных в диванах Алишера Навои, вошедших в сборники "Бадоеъ ул-бидоя," "Наводир ун-нихоя" и "Хазойин ул-маоний," показывают, что эта тематика проявляется только в жанре рубаи.

Ключевые слова: Хабар, хабарчи, косид, рубаи, жанры, ташбех, гипербола, диван, макатуб, малые жанры.

THE THEME OF MESSAGE AND MESSENGER IN WORKS OF SMALL LYRICAL GENRES

Mardanov Rakhim Gaybulla son

Jizzakh Polytechnic Institute. Teacher of the Uzbek language and literature department

Gmail: rahimmardanov42@gmail.com

Annotation: This article also addresses the theme of news and messenger in Hazrat Navoi's works in small lyrical genres, particularly in his rubaiyat. The results of research on the topic of news and messenger in the works of Alisher Navoi in the small genre found in the divans included in the collections "Badoye' ul-bidoya," "Navodir un- nihoya," and "Khazoyin ul-maoniy" showed that it is found only in the rubai genre.

Keywords: Khabar, khabarchi, qasid, rubai, genres, tashbeh, mubolağa, divan, makatab, small genres.

Albatta, Hazrat Navoiy o'z g'azallari qatori kichik lirik janrlardagi asarlarida, xususan, ruboiy janrida ham xabar va xabarchi mavzusiga murojaat qilgan. Jumladan, ulug' shoirning dastlabki rasmiy devoni "Badoye' ul-bidoya"ga 7-raqam bilan kiritilgan quyidagi ruboiyda xabar mavzusi qalamga olingan:

***Nomangki, tirikligimdin uldur matlub,
Ochib o'qug'och bir necha lafzi marg'ub,
Ko'p to'lg'onib, ashk ichra o'zumdin bordim,
Ul nav'ki, suv ichiga tushgay maktub.***

Ruboiyni shunday tabdil qilish mumkin: *nomang tirikligimdan ko'ra ko'proq xoxlangandir, uni ochib bir necha dilga yoqadigan so'zni o'qigach, ko'p to'lg'anib, xuddi suv ichiga tushgan maktubday qonli ko'zyoshi ichida o'zimdan ketdim.*

Ko'rinadiki, ruboiyda ma'shuqasidan orziqib kutilgan javob maktubini olgan oshiqning ruhiy holati badiiy tasvirlangan. Lirik qahramon mashuqasining maktubini o'z tirikligidan ustun qo'ygan. Bir qarashda bunday iqrer erish tuyulishi mumkin, lekin chuqurroq o'ylab ko'rilsa, ilojisizlik ortidan keladigan bexabarlikning o'zi o'limdan og'irroqdir. Shu sabab yordan kelgan xabar oshiq uchun o'z tirikligidan a'loroqdir.

Xatni ochib, undan bir necha dilga xush yoqadigan so'zlarni o'qigach, oshiq ko'p to'lg'anib, ko'zidan og'gan qonli yoshi ichida hushidan ayrilganini ifodalash uchun o'zini suvga tushgan maktubday his qilishini bayon qiladi. She'rda shoir mubolag'a (*ashk ichra o'zumdin bordim*) va tashbeh (*ul nav'ki, suv ichiga tushgay maktub*) badiiy san'atlaridan ustalik bilan foydalangan. Qofiyalanish tartibiga ko'ra, ruboiyi xosa hisoblanadi, chunki ruboiyning uchinchi misrasi ochiq, qolganlari o'zaro qofiyadosh (*matlub-marg'ub-maktub*) hisoblanadi: *a-a-b-a*

Mazkur devonga 8-raqam bilan kiritilgan quyidagi ruboiyda ham xabar mavzusi bayon qilingan:

***Nomangkim, erur boisi iqbol-u tarab,
Yetkursa tarab meni hazing'a, ne ajab,
Yolg'uz mendin ketarmadi ranj-u taab,
Kim bo'ldi base xalq hayotig'a sabab.***

Mazmuni: *maktubing baxtiyorlik va shodlik sababchisi bo'ldi, bu shodlik meni qayg'uga yetkazsa, ajabmas. Faqat myendan hargiz xalq hayotiga sabab bo'lgan ranj va qiyinchilikni ketkazmadi.*

Ruboiyning lirik qahramoni nafaqat oshiq, balki xalq dardi bilan yongan inson hamdir. U yor maktubini olganidan o'zini baxtiyor va shodlikka to'lgan, lekin bu xursandchilik uzoqqa cho'zilmasligidan xavotirda. Chunki yor maktubi uning o'z dardini aritgan bo'lsa-da, yuragini to'ldirgan xalq ranji va qiyinchiligini ketkazolmadi. Baytda qo'llangan *iqbol-u tarab – ranj-u taab, tarab – hazin* so'zlari vositasida qo'llangan tazod san'ati uning badiiy qimmatini oshirgan. Qofiyalanishiga diqqat qaratsak, uning har to'rtala misrasi o'zaro qofiyadosh: *tarab-ajab-taab-sabab*. Shunga ko'ra bu ruboiy taroniyi ruboiy yoki musarra' sanaladi.

“Badoye’ ul-bidoya” devonidagi 26-raqamli ruboiy ham bevosita xabar mavzusida bitilgan:

***Gul zikrin eshiturmenu, yo'q guldin asar,
Bu bog' eshigidin istaram oncha guzar,
Kim topmasa gul jamolidin bahra nazar,
Bori isidin yetsa dimog'img'a xabar,***

Ruboiyda keltirilishicha, lirik qahramon gul tavsifini ko'p eshitsa ham, lekin haligacha uni ko'rishga muyassar bo'lmaganligidan o'kinadi. U gul o'sgan bog' eshigidan ichkariga o'tish(kirish)ni xohlaydi, biroq buning imkoni yo'q, shu bois oshiq gul jamoliga nazar

solishdyek halovatni topmasa ham, dimog'iga uning hididan xabar yetishidan umidvor. Ushbu ruboiy qofiyalanishiga ko'ra musarra' yoki taronayi ruboiy turiga mansub. Chunki uning har bir misrasi *asar-guzar-nazar-xabar* so'zlari yordamida o'zaro qofiyalangan. Shoir ruboiyda *gul, bog', jamol, is, dimog'* so'zlari vositasida tanosib san'atini qo'llagan.

Mazkur devonga 29-raqam bilan kiritilgan ruboiyda ham xabar mavzusi xalqona usulda tasvirlanganki, bunda shoirning xalqona urf-odat va bashoratlardan mukammal darajada xabardorligi aks etadi:

Ko'zum uchadur, magarki yorim keladur,

Es har dam ozar, magar nigorim keladur.

Yo bodiyayi firoq sayrida qilib

Yuz marhala qat' shahsuvorim keladur.

Inson sog'ingan yoki ko'rish ishtiyoqida bo'lgan kishisining tashrifi yoki u haqida xabar eshitishi oldidan ko'p hollarda buni ko'ngli bilan sezadi va xalq tilida *"ko'zim uchaverdi"* degan ibora uchraydi. Ulug' shoir ham, albatta, bundan xabardor bo'lgan va buni ruboiyning birinchi misrasida yorni ko'rish yoki undan biror xabar olish ilinjida bo'lib, hijronda iztirob chekayotgan oshiq ruhiy holatini tasvirlashda mohirlik bilan qo'llagan: *ko'zim uchyapti, balki yorim kelar*. Keyingi misrada yorning umidvor gumoni ortganligi tasvirlanadi: *ko'zim uchganidan har dam esim og'adi, balki nigorim kelar*. Ruboiyning keyingi baytlarida hozirgi zamon kitobxoni uchun notanish bo'lgan *bodiya, marhala, qat'* va *shahsuvor* so'zlari uchraydi.

Bu izohlarga asoslanib, ruboiyning keyingi misralarini shunday talqin qilish mumkin: *yo firoq dashtida sayr qilib, otga minib yuz masofa yo'l bosib, mahbubam – shahsuvorim keladi*. Ya'ni baytda lirik qahramon ko'zi uchishini yaxshilikka yo'yadi, yorining o'zi yoki undan yaxshi xabar kelishini umid qiladi. Demak, ruboiyda xalq orasida tarqalgan oddiy bir qarash, tasavvur orqali yor hajrida qattiq iztirob chekayotgan oshiqning ruhiy holati xalqona samimiy ohanglarda badiiy jihatdan ohoriy bo'yoqlarda tasvirlangan. Baytda *ko'zi uchmoq-esi og'moq* birikmalari, *yor-nigor-shahsuvor* hamda *marhala-qat'-shahsuvor* so'zlari vositasida uchta tanosib san'ati qo'llangan. Qofiyalanishga ko'ra ushbu ruboiy ruboiyi xosa hisoblanadi, chunki uning birinchi, ikkinchi va to'rtinchi misralari o'zaro qofiyadosh, uchinchi misrasi esa ochiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – **www.ziyouz.com** kutubxonasi, 37-b.
2. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent, "Movarounnahr", 2009, 48-60-b.
3. Alisher Navoiy. Badoe' ul-vasat. – **www.ziyouz.com** kutubxonasi, 13-14-b.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. – Toshkent, "Fan", III, 1984, 400-b.
5. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. Fan", II, – Toshkent, "1983, 618-b.
6. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. – Toshkent, "Fan", II, 1983, 240-b.